

Gavxaroy Isroiljon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
+998914889545; gavharoy7575@mail.ru

TURIZM TERMINOLOGIYASINING DIAKRON ASPEKTD O'RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya: Ushbu maqola turizm terminologiyasining davriylashtirilish hamda ularni diakron aspekta tadqiq etishga bag'ishlangan. Turizm terminologiyasining funksional va milliy-madaniy muloqot darajasida ingliz va o'zbek tillariga kirib kelishi davriylashtirilgan. Turizm terminlarining davrlardagi qamrovi statistik uslubda o'rganilgan va foizlarda aniqlangan. Turizm terminologiyasining madaniyatlararo muloqotga qaratilgan o'rganilishning bir qator yondashuvlarini tavsiflangan va lisoniy vositalar, filtrlar va boshqa aqliy modellar ma'lum elementlarga ustuvorliklarni belgilashdan iborat bo'lganligi va bu sohaning terminlari ham yangilanib, rivojlanib, kengayib boraverishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: turizm, termin, terminologiya, uyushgan turizm, ommaviy turizm, ixtiyoriy ommaviy turizm, kasaba yushmasi va davlat boshqaruvi, turizm ilk davri, ommaviy diferantsiallangan davr, ommaviy koveyer davri.

Гавхарой Исроилжон кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков,
доктор философических наук по филологии (PhD), доцент
+998914889545; gavharoy7575@mail.ru

ИЗУЧЕНИЮ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ДИАХРОНИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Аннотация: Данная статья посвящена периодизации туристской терминологии и ее диахроническому исследованию. Внедрение туристической терминологии в английский и узбекский языки на уровне функционального и национально-культурного общения носит периодический характер. Охват туристическими терминами периодов изучался статистически и определялся в процентах. Описан ряд подходов к изучению туристской терминологии, направленных на межкультурную коммуникацию, и отмечено, что лингвистические инструменты, фильтры и другие ментальные модели состоят в установлении приоритетов для определенных элементов, а термины этой области обновляются, развиваются и расширяются.

Ключевые слова: туризм, термин, терминология, организованный туризм, массовый туризм, добровольный массовый туризм, профсоюзное и государственное управление, ранний период туризма, массовый дифференцированный период, массовый транспортный период.

Gavharoy Isroiljon kizi

Andizhan State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate professor
+998914889545; gavharoy7575@mail.ru

THE STUDY OF TOURISM TERMINOLOGY IN A DIACHRONIC ASPECT

Abstract: *This article is devoted to the periodization of tourism terminology and their diachronic research. The introduction of tourism terminology into the English and Uzbek languages at the level of functional and national-cultural communication is periodic. The coverage of tourism terms in the periods was studied statistically and determined in percentages. A number of approaches to the study of tourism terminology aimed at intercultural communication are described, and it is noted that linguistic tools, filters and other mental models consist of setting priorities for certain elements, and the terms of this field are updated, developed and expanded.*

Key words: *tourism, term, terminology, organized tourism, mass tourism, voluntary mass tourism, trade union and state management, early period of tourism, mass differentiated period, mass conveyers period.*


KIRISH. Turizmshunoslikda ijtimoiy va madaniy jihatdan ishlab chiqarilgan dunyoning umumiy tushunchasi Fillmorening fikricha, har doim tez-tez takrorlanadigan vaziyatlar bilan bog'liq, ya'ni bilim va e'tiqodlarni ifodalovchi kognitiv modellar orqali vositachilik qiladi. Asosan, turizm funktsiyasida muloqotning idrok etilishi va ahamiyatsiz deb hisoblanganlarni soddalashtirish, yoki hatto, chetlab o'tish, shunchaki, ularning o'ziga odatlangan dunyoqarashidan juda uzoqda ekanligi, orasidagi keskinlik madaniy tizimlarning murakkabligi va bu murakkablikni kamaytirishga umumiy insoniy moyillik boshqarilishi mumkin bo'lgan bo'laklarga ajratish, turizm hodisalari, shu jumladan, madaniyatlararo muloqotga qaratilgan o'rganishning bir qator yondashuvlarini tavsiflaydi va lisoniy vositalar, filtrlar va boshqa aqliy modellar ma'lum elementlarga ustuvorliklarni belgilashdan iborat bo'ladi. Bu sohaning terminlari ham yangilanib, rivojlanib, kengayib boraveridi.

Turizm terminologiyasining system tahlili (keyingi o'rinlarda, TTST) ning Umumiy turdagi system tahliliga ko'ra ingliz va o'zbek turizm terminologiyasi tarixiy –diaxronik va zamonaviy – sinxronik davrlarini aniqladik. O'zbek tilida turizm terminologiyasining shakllanishi ingliz tiliga qaraganda bir oz boshqacha tarzda davom etdi. Bu, avvalambor, mamlakatimizning va turizmning alohida bir sohasi sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishiga bog'liq holda kechadi.

TADQIQOT METOD VA USULLARI. Tadqiqotda tarjimaning komponent va transformatsion tahlil metodlari bilan bir qatorda, demografik tahlil, miqdoriy tahlil, kuzatish va izohlash kabi tarkibiy usullar, shuningdek, tarixiy kontekstli tahlil, yozma so'rov (sotsiolingvistik intervyu-so'rov muloqot) va assotsiativ eksperimental usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqotlarimiz natijasida, o'zbek turizmining rivojlanish tarixidagi to'rt davrini aniqladik. Quyida keltirilgan jadvalda o'zbek turizmining rivojlanish tarixi hamda tilda mavjud umumiy va xususiy terminlar bilan birga o'zlashgan terminlar ham foizlarda aks etgan.

Chizma- 1. O'zbek turizmi rivojlanishi davrlari va unda o'zlashgan umumiy hamda xususiy terminlar foizi.



- Birinchi davr – uyushgan turizmning tarixiy jarayoni ancha uzoq davrni o'z ichiga oladi: XVII asr oxiri – XIX asr boshlari. Bu davr turistik xarakteri yagona voqealar bilan ajralib turadi.
- Ikkinchi davr – turistik faoliyatni tashkil qilishning ixtiyoriy-ommaviy shakli XIX asr oxiri – 1936 yilga to'g'ri keladi.
- Uchinchi davr– turizmni kasaba uyushmasi va davlat boshqaruvi davri bo'lib, 1936 yilda boshlanib, turizm sport terminlarining paydo bo'lishiga olib keldi. 1936 yilda boshlandi va terminlar salmog'i 24% tashkil etdi.
- To'rtinchi davr – atigi o'n-yigirma yil davom etishiga qaramay, ushbu davr o'rganilayotgan terminologiyani yangi birliklar bilan to'ldirish jihatidan eng samarali hisoblanadi.

Birinchi davr – uyushgan turizmning tarixiy jarayoni ancha uzoq davrni o'z ichiga oladi: XVII asr oxiri – XIX asr boshlari. Bu davr turistik xarakteri yagona voqealar bilan ajralib turadi. Turizm terminologiyasi boshlang'ich bosqichda edi: umumiy adabiy tildan qabul qilingan terminlar hisobiga shakllana boshladi: *yolg'iz sayyoh, tunab qolish, kelish vaqti, ketish vaqti, sayohat kitobi, qo'llanma* («hamrohlik» ma'nosini anglatadi). Birinchi davrda o'zbek tilidagi terminlarning 3 % ga yaqini shakllandi.

Ikkinchi davr – turistik faoliyatni tashkil qilishning ixtiyoriy-ommaviy shakli XIX asr oxiri – 1936 yilga to'g'ri keladi. Bu davr O'zbekistonda turizmning rivojlanishi asosan ixtiyoriy jamoat tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan davrni ichiga oladi. Aynan, ikkinchi davrda turistik va turizm terminlari o'zbek tiliga frantsuz, ingliz tillaridan muomalaga kirib keldi. Ushbu bosqichda *ekskursiya* faoliyati alohida rivojlandi, turizm terminologiyasi asosan *ekskursiya biznesi* (*o'quv, talaba, arzon, piyoda ekskursiya*), *ishtirokchilar* (*ekskursovod, ekskursant*), *jihozlar* (*chodir, turistik kiyim, shamol ko'ylagi*) shartlari bilan to'ldirildi, *ekskursiya tashkilotchilari* (*ekskursiya stantsiyasi, ekskursiya byurosi, ekskursiya bo'limi*) kabilar hisobiga boyidi. Shuningdek, sayohatlar va ekskursiyalarni tashkil etish texnologiyasiga bag'ishlangan terminlarning butun bir qatlami yuzaga keldi: *turistik va ekskursiya ishlari, turistik marshrut, rejalashtirilgan turizm; turarjoy: chodir lageri, turistik uy, turistik baza*. Ikkinchi davrda taxminan terminlarning 25% paydo bo'ldi. Ularning deyarli barchasi o'zbek tilining ichki resurslari hisobiga shakllandi.

Uchinchi davr– turizmni kasaba uyushmasi va davlat boshqaruvi davri bo‘lib, 1936 yilda boshlanib, turizmda *sport* terminlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. 1936 yilda boshlandi va terminlar salmog‘i 24% tashkil etdi. Uchinchi davrda turizmni tashkil etish terminologiyasi tilning o‘z resurslari hisobiga takomillashishda davom etdi: *turistik jihozlarni ijaraga berish punkti, turizm bo‘yicha instruktor, marshrutni belgilash, agentlik, turagent, turoperator* kabi. Deyarli barcha terminlarning, shu jumladan, hosila va murakkab terminlarning shakllanishi asl ildiz so‘zlari asosida yuzaga keladi; Natijada, uyalash tuzilmalari paydo bo‘ladi (*sayohat: sayohatni belgilash, kategoriyali sayohat, sayohat varag‘i, sayohat daftarchasi, chiziqli sayohat, radial sayohat*). Bu esa terminlarning mazmunli va lingvistik muvofiqligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan turizmning mavjud terminologik tizimi to‘g‘risida fikr yuritish imkoniyati oshdi.


Turizmni rivojlantirish tubdan isloh qilinishiga qaratilgan yangi to‘rtinchi davr bugungi kunda ham davom etmoqda. Ushbu bosqichda turistik faoliyat tizimi tub o‘zgarishlarga duch keldi va mavjud terminlar tizimi sezilarli darajada qayta tuzilishga uchradi. Bir tomondan esa, terminlarning quyi tizimlari g‘oyib bo‘ldi (birinchi navbatda, rejalashtirilgan va kasaba uyushma turizmi bilan bog‘liq bo‘lganlar), boshqa tomondan, inglizcha terminlarning faol ravishda kirib kelishi kuzatildi. Natijada, terminlarning oson o‘zlashlashtirilganligi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

To‘rtinchi davr – atigi o‘n-yigirma yil davom etishiga qaramay, ushbu davr o‘rganilayotgan terminologiyani yangi birliklar bilan to‘ldirish jihatidan eng samarali hisoblanadi. O‘rganilayotgan korpusdagi terminlarning taxminan 48% 1990 yildan keyin paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, yangi terminlar shu qadar tez paydo bo‘ldiki, ularning aksariyati lug‘atlarda o‘z aksini topishga ulguradi. Bunday terminlarga quyidagilar kiradi: *flesh-paket, giyohvandlik turizmi, ko‘ngilli sayyohlik, koshserfing, boosterizm, klubda tanishish, glamping*. Ko‘rinib turganidek, turizm terminshunosligining diaxronik tahlili har ikkala tilda tegishli terminologik qatlamning tadrijiy taraqqiyot yo‘lini tasavvur qilish imkonini beradi. O‘zbek tilining bu davrdagi terminologik qatlami rivojlanayotgan bir paytda ingliz tilidagi turizm terminologiyasini rivojlangan deb atash mumkin, degan xulosaga kelishga asos bo‘la oladi.

TTSTda turizm terminlarining kontseptual tizimini tushunish, o‘rganilgan turizm terminologiya tizimining mantiqiy va kontseptual tahlili terminologik tizimlarining tipologik yaqinligini ko‘rsatadi hamda kontseptual darajada yetarlicha aniqlik bilan paydo bo‘lgan turizm sohasi terminologiyasi ikkala tilda ham tushunchalar tizimini aks ettiradi. Uning ko‘plab filiallarida ishlaydi va kontseptual hamda terminologik sohalar turizm sanoati, turizm statistikasi, mikrofildlar – mikromaydonlar transport, mehmondo‘stlik sanoati, turizmni tashkil qilish, umumiy ovqatlanish sanoati, dam olish faoliyati kabi mavzuiy guruhlar ko‘rinishida yuzaga chiqadi.

G'arbda turizm insoniyat rivojlanish tarixining ma'lum bir davrida, aniqroq aytadigan bo'lsak, odamzod birlamchi ehtiyojlarini qondirish zarurati doirasidan chiqib, hordiq olishga qurbi yeta boshlaganda alohida xizmat turi sifatida shakllangan. Turizm terminologiyasining boyib borish bosqichlarini tarixiy jihatdan davrlashtirish mumkin. Bu jarayonga nazar tashlash terminlar talqinida qo'l keladi. L.V.Vinogradova xalqaro turizm terminologiyasining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan ingliz turizmini to'rt bosqichga bo'ladi:

Chizma- 2. Ingliz turizmi rivojlanish tarixidagi to'rt davri va o'zlashgan umumiy va xususiy terminlar foizi.



I bosqich – turizm faoliyatining ilk davri. Bu davr inglizlarning asosiy sayohat omillari savdo, ziyorat, davolanish ta'lim bo'lgan qadimiylilikdan XIX asr boshigacha bolganoraliqni oz ichiga oladi. Bu bosqich ingliz turizmi terminosistemasining va turizm terminshunoshligining poydevori barpo etila boshlaganligi bilan harakterlidir. Harakat vositalari, boshpana, yashash sharoitlari umumadabiy leksik birliklar vositasida ifodalana boshladi: **carriage, board, excursion, hotel, resort, itinerary**. L.V.Vinogradova bu davrda ingliz turizm leksikonining 6 foizi shakllanganligini taxmin qiladi.

II bosqich – ommaviy turizm rivojlanishni boshlagan XIX asrni to'la qamrab oladi. Bu davr moddiy - texnik baza, ish uslublari hamda turizmini boshqaruv organlariga tamal toshi qo'yilgan. **Tourism** va **tourist** terminlari ham shu bosqichning mahsulidir. 1841 yilda zamonaviy turizm asoschisi sanaladigan Tomas Kuk ilk ekskursion turizmning temir yo'l turini uyushtiradi. Kuk muvaffaqiyat qozonadi va 1851 yil «Tomas Kuk va uning O'g'li» nomli ilk sayohat buyurosini ochadi. Mana shu «ilk sayohat buyurosi» leksemasi turizm terminologiyasining keyingi rivoji uchun turtki vazifasini o'tadi.

XIX asrda turizmning gurkirab rivojlanishi turizm terminlarining qariyb 45 foizining yuzaga kelishiga sababchi boldi. Ularning shakllanishida tabiiy jarayon ishtirokchilari – turli turizm xizmatlari ta'minotchilari katta xizmat qilishdi. Terminlar quyidagi mezonlar asosida yaratilganini aytib o'tish joiz:

- 1) Tur buyuro vositachilik xizmatlari asosida: *conductor, booking*;
- 2) Tashish va yetkazib berish xizmatlari asosida: *commute, Pullman car, liner*;
- 3) Joylashirish xizmatlari asosida: *maitre d` hotel, bivouac, room, motel*;
- 4) Ovqatlanish xizmatlari asosida: *a la carte, table d` hote, buffet, cuisine*;
- 5) Ko'ngilochar xizmatlar asosida: *safari, attraction*.

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, ikkinchi bosqichda ingliz turizm terminologiyasiga boshqa tillaridan faol so'z o'zlashtirish jarayoni boshlangan. Frantsuz tilidan kirib kelgan: *coupon* – *кupon*, *maitre d` hotel* – *mehmonxona xo'jayini*, *bivouac* – *ochiq havodagi dam olish maskani*, Nemis tilidan olingan *Baedeker* – *mehmonxona joylashgan shahar nomi* (masalan: *O'zbekiston mehmonxonasi, Seul mehmonxonasi, Buxoro saroyi mehmonxonasi kabi*), Shved tilidan o'zlashtirilgan *smorgasboard* – *Shved dasturxoni* (*Шведский стол*) bunga misol bo'ladi.

III bosqich – ommaviy konveyer turizmi davri XX asr boshidan ikkinchi jahon urushiga qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Bu bosqich turizmga xizmatlarning soddaligi, ularning ijrosi standartlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu paytda turizm bilan bir xilda transport tizimi rivoji, zamonaviylashuvi kuzatildi. Bu esa o'z o'rnida sayyoh tashish xizmati bilan bog'liq terminlarning ko'plab yaratilishiga olib keldi: *lag, aircraft, aircraft carrier, shuttle, airline*. Mehmonxona biznesi rivojlandi. Turizm terminlarining yasashida yangi mezonlar paydo bo'ldi:

- 1) Aholini joylashtirish va xona nomlari asosida: ***motel, penthouse, duplex***;
- 2) Xizmatlar ko'rsatuvchilar nomlari asosida: ***hotelier, receptionist***;
- 3) Xizmat nomlari asosida: ***reservation, room service***.

Uchinchi bosqichda ingliz turizm terminologiyasi transport va mehmonxona infrastrukturasi hisobiga 25 foizga boyigan deb aytish mumkin.

IV bosqich – ommaviy differentsiallashgan turizm davri. U bugunga qadar davom etib kelmoqda. Differentsiallashgan turizm ehtiyoj, istaklarning xilma-xilligi, turizmga bo'lgan talabda xususiy segmentlarning ko'p sonliligi, xizmatlarning turli-tumanligi hamda taklifning yaqqol xususiy lashganligi ajratib turadi. Tabiiyki, bu jarayon turizm terminologiyasining xususiy terminlar bilan kengayishiga sabab bo'ldi: *agrotourism, disaster tour, nostalgic tourism, familiarization trip* va h.

50-60-yillarda, ya'ni turizm infrastrukturasi intensiv ildamlash davri terminshunoslikda ham o'z aksini topdi. Hozirgi kunda faol qo'llanilish doirasiga kirgan mehmonxona san'ati (*condominium, check-in, check-out, boutique hotel*), jamoat ovqatlanish tartibi (*brunch, catering, stand-up buffet*), turoperator va sayohat agentliklarning vositachilik xizmatlari (*catchment area, last-minute tour, reservation system*) ga aloqador ko'pgina terminlar aynan shu bosqichda iste'mol hamda lug'tlarda paydo bo'ldi. Ushbu davr ingliz turizmi terminologiyasida boyitishning o'ziga xos jihati qo'shma hamda birikmali nomlarning yuzaga kelishi bo'ldi: *tour leader, tour operator, tour participant* kabi.

Bizning fikrimizga ko'ra, global lingua franka (turli tillarda so'zlashuvchi millat va elat vakillari uchun o'zaro tushunarli bo'lgan umumiy aloqa-almashinuv tili) hisoblanmish ingliz tili turizm o'choqlari hamda maskanlarida bo'ladigan

jamiki operatsiyalar va jarayonlarda harakatlantiruvchi ta'sir kuchiga ega u fanning barcha sohalari, xususan, sayyohlik xizmatlari sohasida amaldagi biznes va sayohat turizmi terminologiyaning negizi sanaladi.

TTST (keyingi o'rinlarda, Turizm terminologiyasining system tadqiqi) ning mavzu me'zonining ikkinchisi *rasmiy* tomonini tahlil qilish, ko'pgina tadqiqotchilar ikkita alohida guruhlarini ajratib ko'rsatishadi: 1) tarkibi jihatidan farq qiladigan turizm terminlari: terminlar- so'zlar (bir komponentli) va so'z birikmalari, iboralar, gap, matn - (ko'p komponentli). O'rganilayotgan terminlar ichida bir komponentli (41,5%) sifatida mavjud, ko'p komponentli (58,5%) atamalar ham shunday. Aniqroq qilib aytganda, "turizm" o'zbek turizm terminologik tizimi (asosan, rus terminologiyasidan o'zlashgan) quyidagilarni o'z ichiga oladi: bir komponentli-287 birlik (41,5%); ikki komponentli 369 dona (53,4%); uch-komponentli-33 birlik (5%); to'rt komponentli-1 birlik (0,1%). Shuni eslatib o'tish joizki, o'zbek turizmi terminologik qatlami diaxron shaklda rus tili vositasida bevosita shakllangan va bo'lgan bo'lsa, sinxron tarzda ingliz tili orqali bilvosita rivojlanmoqda.

Terminologiya yuzasida tadqiqotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar (S. V. Grinev, O. I. Kazachkova, V. I. Kumanin va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, rus tilida shakllangan holi bilimining ma'lum bir sohasining terminosistemi- ko'p komponentli atamalar soni 70% ga yaqin va o'zbek tili deyarli bilvosita ularni o'zlashtira olgan.

XULOSA. Shunday qilib, biz olgan ma'lumotlar buni isbotlaydi va "turizm" rus terminosistemi bosqichida shakllanishlar hamda ko'p komponentli ustunlik terminlar ham intensivlikdan dalolat beradi. Turizm yoki turistik terminlarni ixtisoslashtirish jarayoni, terminosistemaning ierarxik tuzilishining dunyosi-komponentlar orasidagi derivativ aloqalarni kommunikatsiya jarayonida biz o'rnatamiz.

TTSTning *semantik- konseptual- semantic - conceptual*: terminosistemaning leksik-semantik tuzilishi quyi tizimlar va leksik-semantikani ajratib ko'rsatish ularning ichidagi guruhlar), termin tizimining to'liqligi (yo'qligi / mavjudligi undagi lakuna), terminosistemaning semantik tizimlilik (mavjudligi uning terminologik uyalari), terminosistemaning semantik izomorfiyasi (sinonimiya, omonimiya, polisemiya va antonimlar ulushini belgilash) haqida ekanligini takrorlash barobarida keying boblarda batafsil toxtalib otamiz.

TTST ning to'rtinchi me'zoni, *funksional - functional*: terminosistemaning ochiqqligi (qarshilik tashqi ta'sirlar); terminosistemaning ishlash muammolari, kabilarga ajratadi. O'tkazilgan tahlil natijalarimiz va organganlarimiz shuni ko'rsatdiki, sintaktik terminologik iboralarni shakllantirish hozirda eng samarali terminologiya usuli hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida *administrator* (*adminstator*) termini bilan bir paytda huddi u ifodalagan ma'noni ifodalovchi *receptionist* termini qo'llanadi. *Receptionist* o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda "qabul qiluvchi" degan ma'noni anglatadi (o'zbek tilida bu terminning *administrator* varianti iste'molda faol qo'llanadi). Biroq, real kommunikativ jarayonda ikki komponentli birikmalar ustunlik qiladi, bu esa tizimning uyg'unligini yaxshilaydi va uning chalkashliklarini oldini oladi. Ikkisi orasida - komponentli iboralar, ko'pgina ko'chma termin modellariga ko'ra "sifat + ot" va "ot + ot". Bunday iboralar kombinatsiyalar ikkita kompozitsiyaning kombinatsiyasi, ulardan biri asosiy termin hisoblanadi. Birlashtiruvchi so'zlar aniqlovchi hisoblanadi, qaysi asosiy terminning ma'nosini aniqlash va termini logik ma'nosi yuzaga chiqadi. Bunga misol - "turizm" tayanch yoki yadro termini bilan terminologik guruh ("sifat + ot" (*local tour- mahalliy tur*); "ot+ot" (*tur agent-tour agent*) modellari).

Demak, o'zbek tilidagi boy va keng ko'lamdagi terminologik qatlamlar ichida turizm terminlari alohida o'rin tutadi va u ikki manbadan: halqaro aloqalar, sharq savdo-sotig'i, tijorati, jahongashtaligi bilan bog'liq lug'at tarkibidan va zamonaviy xizmat turlariga asoslangan G'arb turizmi terminologiyasidan kuch olgan holda kundan kunda rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashim Gupta (Author) "Travel Agency and Tour Operations: Concepts and Principles" Publisher: Centrum Press 2012, New Delhi, India.
2. Alimqulova, B. (2023). COGNITIVE LOAD AND FATIGUE IN SIMULTANEOUS TRANSLATION. Евразийский журнал академических исследований, 3(3), 227-232.
3. David Weaver, Laura Lawton "Tourism Managemen" 5th Edition. SBN: 978-1-118-64481-2.
4. Fillmore C.J., 1985, "Frames and the semantics of understanding", Quaderni di Semantica VI:2, pp. 222-254.
5. Hans M Series edited by Terry Phillips "English for Tourism and Hospitality in Higher Education Studies", Course Book with audio CDs" Patricia Paskins, 2010.
6. Kotler P., Bowen J. & Makens J. "Marketing For Hospitality & Tourism" Pearson International Edition. 2014, USA.
7. Mashrabovna, N. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUISTIC PHENOMENON OF LACUNARITY. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 310-315.
8. Qizi, G.I.(2023). CONCEPTIVE PECULIARITIES OF TOURISM TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH. European journal of literature and linguistics, (1), 8-15.

9. Gatner W., Image formation process. In M.Uysal and D. Fesenmainer Communication and channel systems in Tourism marketing, New -York, The Harworh press, 1993, pp 121-215; 1986, Temporal influences on Image Change. Annals of Tourism Research
10. Гавхарой, И. (2021). Определение делового туризма и национальной культурной деятельности в управлении. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 109-113.
11. Valizaoy, O. (2023). THE CONCEPT OF UZBEK ANTHROPONYMICS AND ITS MAIN PROBLEMS. PEDAGOGS, 48(1), 38-42
12. Петросянц Э.Г. Лингвистическое терминопole: структура, семантика, деривация: На материале английского языка: Автореф. дисс... д-ра филол наук. – Пятигорск, 2004. – С. 16.